


So'zak siydik-tanosil a'zolari
kasalligidir.

USMONOV ILHOMJON

A decorative graphic element consisting of several horizontal lines of varying lengths and colors (teal, light blue, white) extending from the right side of the slide towards the center.



So'zak siydik-tanosil a'zolari kasalligidir.





- Kasallikning qo'zg'atuvchi gonokokklarni Olmoniyalik olim Neysser 1879 yilda kashf etgan. Gonokokklar Gram usulida manfiy bo'yaladigan diplokokklardir. Ular loviya shaklida bo'lib, uzunligi 1,25 mkm, eni 0,75 mkm ni tashkil etadi. Gonokokklar faqat odam organizmini zararlaydi, tarkibida oqsil moddasi bo'lgan sun'iy oziq muhitlarda yaxshi rivojlanadi.

Amaliy venerologiyada so'zakning quyidagi klinik turlarini farqlash qabul qilingan:

1. Yangi so'zak (kasallik muddati 2 oydan ko'pga cho'zilgan bo'lmasa);
 - a) o'tkir so'zak - kasallik belgilari o'ta rivojlangan;
 - b) o'rtacha o'tkir so'zak - kasallik belgilari rivojlangan;
 - v) torpid, sezilar-sezilmas so'zak - kasallik belgilari kam yoki ahyon-ahyonda namoyon bo'ladi.
2. Surunkali so'zak (kasallik shakllanganiga 2 oydan ko'p vaqt o'tgan). Bunda so'zak jarayoni chuqurlashadi, o'choqli tus oladi, so'zak asoratlari kuzatiladi. Kasallikning klinik belgilari ko'pincha sust bo'ladi, ba'zan u qo'zib turadi. Yillab davom etishi mumkin.

YUQISHI:

- Kasallik katta yoshdagi kishilarga jinsiy aloqa paytida yuqadi.
- Bolalarga nojinsiy yo'l bilan: kasallikka chalingan ota-onalaridan va uy-ro'zg'or buyumlari orqali yuqadi.



IMMUNITETI

- So'zakda bemor organizmiga tushgan gonokokklar qon zardobida maxsus qarshi tanachalar (komplement bog'lab oluvchi, bir-biriga yopishib cho'kmaga tushuvchi va boshqa turdagi antitanalar) hosil bo'lishiga olib keladi. Bu antitanalar oqsillarning 6-8 turiga mansubdir. Biroq hosil bo'lgan immun tanachalarning himoya kuchi juda past bo'ladi. Ular bemorlarni organizmga qayta tushgan gonokokklardan himoya qila olmaydi. Shu sababli so'zakdan davolangan bemorlarga kasallik qayta yuqishi mumkin (reinfektsiya).


IMMUNITETI

- So'zak bilan kasallangan bemorlarda kuzatiladigan fagotsitoz asosan ko'p yadroli neytrofillar tomonidan olib boriladi. Ammo bunday fagotsitoz tugallanmagan hisoblanadi (endotsitobioz). So'zakning kechishi, kasallikning og'ir yoki engil o'tishi bemor organizmining immunobiologik holatiga bog'liq. So'zak sepsisining ko'pincha organizmi zaiflashib qolgan bemorlarda kuzatilishi fikrimizning dalilidir.

PATOGENEZI

- Gonokokklar tsilindrsimon epiteliy hujayralari bilan qoplangan shilliq qavatlarda yashaydi va ularni zararlaydi. Shu sababli odatdagi so'zak jarayoni quyidagi a'zolarining yallig'lanishiga olib keladi: siydik chiqaruv yo'li (uretrit), bachadon bo'yni (endotservitsit), yo'g'on ichakning pastki qismi (proktit), qiz bolalarda qin (vaginit) va yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ko'zning kon'yunktival va muguz qavatlari (gonoblenoreya). Boshqa siydik-tanosil a'zolarining va ekstragenital organlarning gonokokklardan zararlanishi so'zakning asorati hisoblanadi.

Общие симптомы венерических заболеваний



PROFILAKTIKASI

- Yashirin so'zak yoki gonokokk tashuvchanlik. So'zakning bu turida kasallik belgilari kuzatilmaydi. Ammo bemor organizmida, ayniqsa uning siydik-tanosil a'zolarida gonokokklar mavjud bo'lib, ular laboratoriya usullaridagina aniqlanadi. Gonokokklar tashuvchi odamlar ko'pchilik hollarda o'zlarini sog'lom deb hisoblaydilar. Ular kasallik yuqtirish manbai hisoblanadi. Gonokokk tashuvchanlik diagnozi odatda tasodifan qo'yiladi, ya'ni tekshirilayotgan shaxsda bakterioskopik va bakteriologik usullar yor-damida so'zak kokklari topilgandan so'ng ularning kasallik manbai ekanligi isbotlanadi


Laboratoriya tashxisi:

Бўяш усуллари. Оддий бўяш усули –бунда 1% ли метилен кўкини сувдаги эритмаси, 1% ли бриллиант яшили ишлатилади. Фикцация қилинган суртмага метилен кўкини 1% эритмаси томизилиб 1-1,5 минут кутилади ва сув билан ювиб ташланиб ҳавода қуритилади ва микроскопда иммерсион системада кўздан кечирилади. Бўялган препаратда ҳужайра протоплазмаси кўкиш оқимтир, ядроси кўк рангда кўринади. Бу усулнинг афзаллиги оддий ва тез бажарилишидир, лаборатория учун қулай. Лекин диагнозни тасдиқлашда ва бошқа йиринг ҳосил қилувчи кокклардан фарқлашда Грам усули устунликга эга, шунинг учун Грам усули дифференциал диагностикада ҳал қилувчи ҳисобланади.

Gram usulida bo'yash

Бўялган препаратда гонококклар ловия шаклида бўлиб, ботиқ томони билан бир-бирига қараб туради. Ҳар қайси жуфт кокклар ўртасида бўлиниш мобайнида ҳосил бўладиган ботиқ тирқиш бўлади. Гонококк бўлинганда иккинчи бўлинаётган диплококкнинг тирқишига перпендикуляр жойлашиб туради. Гонококкларнинг лейкоцитлар ичида жойлашиши сўзакда тугалланмаган фагоцитоз жараёнининг ривожланганлигидан далолат беради.

Сўзакнинг микроскопик диагностикасида қуйидагиларни назарда тутиш лозим: лейкоцитоз ҳодисаси; гонококкларни лейкоцитлар ичида жойлашиши; шакли ва ўлчами бир хил, яъни мономорфлиги; гонококклар оралиғидаги тирқишдан хаёлан чизиқ ўтказганда, улар бурчак ҳосил қилиб кесишиши; гонококклар занжир ва тўп-тўп бўлиб жойлашмаслиги ва бош.



а



б

Гонококки в отделяемом влагалища

а - окраска метиленовым синим; б - окраска по Граму

Бактериологик текширув:

Бактериологик текширув (19-схемага қаралсин) **Биринчи босқич**- текширилувчи материал озикли муҳитларга экилади (КДС-муҳити, таркиби-қуён гўшти ёки буқа юраги экстракти ва зардоб қўшилган ГПА) ва термостатга 37° С да 18-20 соат қўйилади.

Иккинчи босқич – экмалар термостатдан олиниб зич муҳитларда *Neisseria gonorrhoeae* ўсиш хусусиятлари ўрганилади. *Neisseria gonorrhoeae* нинг вирулентли штамлари агарда S-колония ҳосил қилади. Колониялар юмалоқ, шудринг томчисига ўхшаш кўринишда бўлади. Авирулент штамлари R-колония ҳосил қилиши мумкин. Кўзғатувчини соф культурасини ажратиб олиш мақсадида шубҳали колониялардан қиялантирилган зардоб қўшилган ГПА экилади ва термостатга 37° С да 18-20 соат қўйилади.

Bakteriologik tekshiruv:

- Учинчи босқич – термостатдан кўзгатувчини соф культураси олинади
- Тўртинчи босқич - кўйилган синамалар термостатдан олиниб натижаланади (жадвалга қаралсин *Neisseria gonorrhoeae* профит ва бошқа кокклардан идентификация қилинади ва якуний жавоб берилади.